

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№8

2025
avgust



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
231 sahifa, avgust, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Visualdsp++ platformasida raqamli signal protsessorlarini dasturlash texnologiyasi	12
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
Tadbirkorlik tushunchasi: falsafiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik tahlil.....	19
Rajabov Sirojiddin Mansurovich	
Xorijiy davlatlar sog'liqni saqlash tizimida investitsiya loyihalarini davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmi.....	26
Karabayev Sanjar Abdusamatovich	
Feasibility study and site optimization for small hydropower plants along the syr darya river in Uzbekistan.....	33
Karimov Mustafo Aminbayevich, Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
Agrar sohada risklarning o'zaro ta'sirchan tarzda namoyon bo'lish xususiyatlari.....	42
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.	47
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
O'zbekiston telekommunikatsiya sohasida raqamlashtirish jarayonlarini samarali boshqarish: "O'zbektelekom" ak misolida	56
Islamov Javlon Rasulovich	
Tijorat banklari amaliyotida jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish yo'nalishlari.....	59
Rustamov Sunnatillo Rustamovich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	66
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Norasmiy bandlikning yashirin iqtisodiyot shakllanishi va dinamikasiga ta'sirining nazariy va amaliy jihatlar	72
Xasanov Jaxongir Jamshidovich, Sharifxo'jayev Shavkat Oqilovich	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga ajratilgan kreditlarning amaliy holati va dinamikasi	80
Irgasheva Nigora Akbarovna	
Туристская мобильность стран персидского залива как устойчивый и перспективный источник въездного туризма в Узбекистан	87
Гольшева Елена Вячеславовна; Додиев Феруз	
O'zbekistonda sug'urta bozori holati va o'sish sur'ati	96
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Davlat xaridlarida narxning eng yuqori chegarasi: huquqiy mexanizm va amaliy ahamiyati	101
Mamasoliyev Abrorbek Abdug'ani o'g'li	
O'zbekiston respublikasida norasmiy sektor va aholini norasmiy mehnat bilan bandligining legallashtirishini boshqarishni istiqbolli ko'rsatkichlari	105
Qoraboev Nuriddin Pardaboy o'g'li	
Разработка инновационных инструментов и механизмов стратегического управления проектами.....	110
Мансурова Севара Мансуровна	
Sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning metodologik asoslari: nazariy va amaliy jihatlar	114
Haqberdiyev Bekzod O'ktamovich	
Учёт и аудит обязательств на предприятиях: анализ зарубежного опыта и практики	120
Халыкназарова Гулназ Жалгасбай кызы	
Theoretical Basis for Ensuring a Cotton Layer on a Conveyor Belt	126
G'.R.Rakhmatov	



Korxonalarning moliyaviy barqarorligini boshqarish	132
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li	
Targetlangan iqtisodiy siyosat orqali kambag'allikka qarshi kurash.....	138
Baratov J.N.	
Jismoniy shaxslarning daromadlariga deklaratsiya asosida soliq solish mexanzmini takomillashtirish	144
Ibragimov Zafar Ismailovich	
Bekobod sement zavodida ishlab chiqarish jarayonlarida og'ir mehnat omillarini avtomatlashtirish orqali xavfni kamaytirish	152
Ishchanov Atabay Reyimberdiyevich	
Tadbirkorlikning mamlakat yaimdagi ulushi va uning o'zgarish tamoyillari	159
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Практические подходы к выявлению и оценке налоговых рисков на основе сегментации деятельности налогоплательщиков	164
Голубова Ольга Сергеевна, Элбаева Мукаддас Рашидовна	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish	170
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
O'zbekistonda innovatsion faoliyatga ta'sir qiluvchi tashqi va ichki omillar.....	176
Anasxon Yunusov A'zamjon o'g'li	
Применение метода анализа иерархий для выбора оптимальной экспортной стратегии: на примере Узбекских предприятий, экспортирующих товары в россию.....	180
Муниса Мирзалиевна Турдибаева	
Processing of Sulfide Copper Ores With Copper and Silver Recovery.	185
Mamaisakova Zebo Bahodir qizi	
Korxonalar eksport salohiyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	189
Naimxonov Ma'rufxon Zokirxon Og'li	
Corporate Governance Reforms and Financial Performance Dynamics: Evidence From State-Owned Banks in Uzbekistan	194
Yusufjon Pulatov, Bakhtiyor Islamov	
Tijorat banklari tomonidan kreditlash mexanizmining uslubiy jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari	200
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Восстановление геологических сигналов с использованием кубических базисных сплайнов.....	204
Гофуржонов Мухаммадали, Гофуржонова Маржона	
Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning amaliy jihatlari	210
Madaminov Bekzod Allayarovich	
Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy siyosatning o'zaro ta'siri: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili.....	215
Irgashev Anvar Farxodovich	
Yashil moliyalashtirishda moliyaviy instrumentlar.....	220
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
Sanoatni rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlari (Xorazm viloyati misolida).....	224
Salayev Jasurbek Komilovich	



SANOATNI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Salayev Jasurbek Komilovich

Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.
ORCID: 0000-0002-3242-2481

Annotatsiya: Maqolada Xorazm viloyati misolida sanoatning rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Statistik ma'lumotlar asosida so'nggi yillarda hududda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish dinamikasi, yetakchi tarmoqlar va investitsion jarayonlar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, hududiy resurs salohiyati, kichik biznesning sanoatdagi roli va davlat dasturlarining ta'siri ilmiy asosda baholangan. Tadqiqot natijalari asosida sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, rivojlanish tendensiyalari, hududiy xususiyatlar, Xorazm viloyati, investitsiya, kichik biznes.

Abstract: The article analyzes the development trends and specific features of industry in the Khorezm region. Based on statistical data, the dynamics of industrial production growth, leading sectors, and investment processes in recent years are examined. The study also provides a scientific assessment of regional resource potential, the role of small business in industry, and the impact of government programs. The results of the research identify priority directions for industrial development and propose practical recommendations.

Keywords: industry, development trends, regional features, Khorezm region, investment, small business.

Аннотация: В статье проанализированы тенденции развития и специфические особенности промышленности на примере Хорезмской области. На основе статистических данных рассмотрена динамика роста объёмов промышленного производства в последние годы, ведущие отрасли и инвестиционные процессы. Также дана научная оценка регионального ресурсного потенциала, роли малого бизнеса в промышленности и влияния государственных программ. На основе полученных результатов определены приоритетные направления развития промышленности и предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: промышленность, тенденции развития, региональные особенности, Хорезмская область, инвестиции, малый бизнес.

KIRISH

Sanoat iqtisodiy taraqqiyotning tayanch tarmog'i sifatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishda hamda aholi turmush darajasini oshirishda muhim o'rin tutadi. Mamlakat sanoati rivojlanishining yuqori sur'atlari milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va hududlarning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois sanoatning



rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda o'rganish nafaqat milliy darajada, balki hududiy kesimda ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda sanoatni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish tarmoqlarini diversifikatsiya qilish hamda hududiy sanoat klasterlarini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston–2030" strategiyasida sanoatni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va hududlarda sanoatni muvozanatli rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

Xorazm viloyati o'zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va mehnat salohiyati bilan O'zbekiston iqtisodiyotida alohida o'rin tutadi. Hududda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil sanoat va energetika tarmoqlari yetakchi sohalar sifatida shakllangan. Shu bilan birga, viloyatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning faollashuvi sanoatning diversifikatsiyasini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sanoat rivojlanishining nazariy asoslari va amaliy tajribasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Xususan, sanoat taraqqiyoti iqtisodiy o'sishning lokomotivi sifatida ko'rib, mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlanadi. J.M. Keyns, U. Rostou kabi klassik iqtisodchilar iqtisodiy rivojlanishda ishlab chiqarish sektorining yetakchi o'rne va davlatning sanoatni qo'llab-quvvatlashdagi funksiyalariga alohida urg'u bergan [1].

Hududiy rivojlanish nazariyalarida esa sanoatning joylashuvi va tarmoqlararo mutanosiblik masalalari muhim o'rin egallaydi. A. Marshall tomonidan ishlab chiqilgan "sanoat aglomeratsiyasi" konsepsiyasida hududlarda sanoat korxonalarining bir joyda to'planishi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi va raqobatbardoshlikni oshirishi ta'kidlanadi [2]. M.Porter tomonidan ilgari surilgan "klaster nazariyasi"da esa hududiy klasterlashuv sanoat samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishning muhim mexanizmi sifatida talqin qilinadi [3].

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham sanoat rivojlanishi masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar faollashdi. Mahalliy olimlardan K.X. Abdurahmonov, M.G. Pardayev, S.Salayev, R.I.Nurimbetov, A.Abdullayev va boshqa iqtisodchi olimlarning ishlarida hududiy sanoat tarmoqlarining transformatsiyasi, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari chuqur o'rganilgan [4]. Ularning tadqiqotlarida, xususan, kichik biznesning sanoatdagi o'rne, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilinadi.

Xorijiy adabiyotlarda esa sanoat rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari, xususan, "Sanoat 4.0" kontsepsiyasi, raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot omillari keng yoritilgan (Klaus Schwab, OECD hisobotlari va boshqalar). Bu yondashuvlarda sanoatning barqaror rivojlanishi uchun yuqori texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va ekologik omillarga e'tibor qaratish ustuvor vazifa sifatida ko'rsatiladi [5].

Xorazm viloyati misolida olib borilayotgan tadqiqotlarda esa hududning tabiiy resurslaridan samarali foydalanish, transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoatining ustuvor yo'nalish sifatida shakllanayotgani ta'kidlanadi. Bu esa hududiy rivojlanish nazariyalari va sanoat klasterlashuvi haqidagi ilmiy qarashlarga hamohangdir. Shunday qilib, adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sanoat rivojlanishini chuqur o'rganishda klassik iqtisodiy nazariyalar, zamonaviy klaster va raqamli transformatsiya yondashuvlari, shuningdek, mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlari kompleks tarzda hisobga olinishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Xorazm viloyatining sanoat rivojlanish tendensiyalari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda ilmiy-tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: statistik tahlil usullari, dinamik tahlil, taqqoslash usuli, hududiy tahlil va shu bilan birga, metodologiya doirasida mahalliy va xorijiy olimlarning nazariy qarashlari hamda ilg'or ilmiy yondashuvlar (sanoat klasterlashuvi, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish konsepsiyalari) kompleks ravishda qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat inqilobi natijasida tarkibiy o'zgarishlarning markaziga aylangan sanoatlashtirish ishlab chiqarish va aholi bandligini misli ko'rilmagan darajada oshirdi, natijada daromadlarning ham yuqori sur'atlarda o'sishi ta'minlandi. Bu esa, o'z navbatida, sanoatni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning muhim

yo'nalishi ekanligini asoslab berdi. Ko'plab ilmiy tadqiqotlar natijalarida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi bilan YIMning o'sish sur'ati orasida kuchli bog'liqlik mavjudligi asoslanilgan.

Shu bois, barcha tarmoqlarning umumiy unumdorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash asosida sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan siyosat choralari ishlab chiqish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi [6]. Hukumatlar tomonidan sanoatni rivojlantirish uchun qulay muhitni ta'minlash asosida ushbu jarayonni tezlashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin :

- sanoat sohasiga yetarli miqdorda kapital oqimini ta'minlash uchun mavjud tarkibiy tuzilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va qulay investitsion muhitni ta'minlash;
- energiya ta'minotidagi barqarorlikka erishish, logistika tizimini rivojlantirish, funksional huquqiy tizimni shakllantirish, hayot va mulk xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan infratuzilmani shakllantirish;
- xususiy mulkdorlar huquqlarini himoyalashga xizmat qiladigan boshqaruv mexanizmini shakllantirish va zaruriy qonunchilik bazasini ishlab chiqish;
- ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish, raqobatbardosh inson kapitalini yaratish asnosida ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish;
- texnologiyalar transferini tezlashtirish va mavjud tizimni takomillashtirish orqali ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligini oshirish;
- mehnat omili sifati va korxonalarni moliyalashtirish tizimini yaxshilash, xususan, kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish va firmalarning operatsion xarajatlarini kamaytirish uchun zaruriy normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish.

Mamlakatimizda mustaqillikka erishilgan dastlabki kunlardan boshlab, sanoat sohasiga bo'lgan ahamiyatni kuchaytirish, iqtisodiy o'sish va daromadlar qayta taqsimlanishini rag'batlantirish maqsadida bir qator sanoatni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqdi va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Ushbu yo'nalishdagi dastlabki maqsad ichki bozorni sanoat mahsulotlari bilan ta'minlash hamda import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan edi [7].

Bunda hukumat mavjud imkoniyatlardan hamda zaruriy resurs bazasining mavjudligi, mahsulot yetishtirishdagi nisbiy ustunlik masalalarini hisobga olgan holda to'qimachilik, poyabzal va oziq-ovqat sanoati kabi sohalarni rivojlantirish asosida mahalliy sanoatni shakllantirish va kengaytirishga harakat qildi. Shuningdek, mamlakat sanoati uchun yangi bo'lgan yo'nalishlarda ham ishlar amalga oshirildi, xususan, avtomobilsozlik, elektronika sohalariga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Natijada, sanoatning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushida ijobiy tendensiyalar ta'minlanmoqda.

Sanoat tarmog'i, xususan, ishlab chiqarish sohasi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, mamlakat iqtisodiyoti yuqori darajada qishloq xo'jaligiga bog'lanib qolgan bo'lib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash masalasi ham yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan edi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatni xomashyo eksporti bilan shug'ullanuvchi agar davlatga sifatida qolishiga sabab bo'layotgan muammolardan biri hisoblanardi. Mazkur masalalarni hal qilishda sanoat muhim vosita vazifasini bajarib berdi. Bugungi kunda sanoatni yanada rivojlantirish asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarish, jahon bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlagan holda mamlakat eksport salohiyatini oshirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda.

Keltirib o'tilgan maqsadga erishish uchun keyingi yillarda sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish, ularning mavjud imkoniyatlarini aniq baholagan holda to'laqonli foydalanish, shahar va viloyatlarda yangi sanoat korxonalarini tashkil etish hisobiga aholi bandligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi va amalga oshirildi. Natijada, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, shu jumladan, elektrotexnika, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika, zargarlik sanoati, qurilish materiallari, mebel, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa iste'mol mollari ishlab chiqarish singari sanoatning hududlarda jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida shakllantirishga muvaffaq bo'lishdi va hududlarning yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanmoqda.

Biroq hududlarda mavjud sanoat salohiyatidan foydalanish bilan kamchiliklar ham mavjud bo'lib, bu muammo hududlarda sanoatni rivojlanishini bugungi zamonaviy, miqdoriy usullar asosida tadqiq qilish va uni ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab berish lozimligini asoslaydi. Shu sababli tadqiqot obyekti hisoblangan Xorazm viloyatida sanoatni rivojlanish tendensiyalari va hududda mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasini qiyosiy, statistik tahlilini amalga oshirib o'tishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatda sanoat mahsulotlari yetishtirish hajmining barqaror o'sishi ta'minlanmoqda, biroq turli iqtisodiy tebranishlarning vujudga kelishi o'sish sur'atlarida



o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shunday bo'lsa-da, boshqa sohalarga insbatan yuqori sur'atlardagi o'sish darajasini ta'minlanishi sanoatning YIMdagi ulushini oshirishga xizmat qildi [8].

Viloyatda YHMda sanoatning ulushini oshishi kuzatilgan, ammo ushbu o'zgarishning qanchalik darajada samarali ekanligini baholash uchun YIMda sanoatning ulushi bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirib o'tildi. Amalga oshirilgan hisob-kitob natijalariga ko'ra, viloyatda sanoatning barqaror o'sish sur'atlari ta'minlanayotgan bo'lsa-da, YHMda sanoatning ulushi mamlakat miyosidagi ko'rsatkichga nisbatan 2 barobardan oshiqroq miqdorga pastligicha qolmoqda.

Ikkala ko'rsatkichning o'zgarish dinamikasiga ko'ra, 2010-yildan buyon sanoatning YIMdagi ulushi 18,7 foizdan 27,8 foizga qadar ko'tarilgan, ya'ni umumiy hisobda 1,5 barobarga oshgan. Xorazm viloyatida esa mos ravishda 7,2 foizdan 13,3 foizga qadar oshganligini kuzatish mumkin. Boshqacha aytganda, 2010-yilga nisbatan 1,8 barobarga oshishi ta'minlangan. Bundan ko'rinadiki, keyingi 10 yillikda viloyatda sanoatning rivojlanishi nafaqat ijobiy tendensiyaga ega bo'lgan, balki yuqori o'sish sur'atlari ta'minlangan. Natijada YHMda sanoatning ulushi 2010-yilda YIMdagi sanoat ulushiga nisbatan 2,6 barobarga kam bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib mazkur ko'rsatkich 2,1 barobarga qadar kamaygan.

Viloyatda sanoatni rivojlanishining asosiy o'zgarishlarida e'tibor qaratadigan bo'lsak, dastlabki o'sish 2014-2015-yillarga to'g'ri keladi, biroq ushbu yillarda sanoatning YIMdagi ulushida o'zgarish kuzatilmagan. Bu o'zgarishning asosiy sababi sifatida sanoat tarkibini o'zgarishi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013-2015-yillarda Xorazm viloyatining sanoat potensialini rivojlantirish dasturi to'g'risida" 2012-yil 22-noyabrda PQ-1856-sonli qarorini bajarish yuzasidan va "Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi" mas'uliyati cheklangan jamiyat negizida "Damas" rumumli yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarorini qabul qilinganligi va zavodni ishga tushirilishini ko'rsatish mumkin.

Bundan tashqari, 2016-yildan keyingi davrda tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha huquqiy asosni takomillashtirish, tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar yaratilishi sanoatning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususi mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2016-yil 6-oktabrdagi PF-4848-sonli Farmoni mazkur o'zgarishlarning asosini tashkil qilmoqda. Bundan ko'rinadiki, sanoatning miqdor va sifat ko'rsatkichlaridagi ijobiy tendensiyani ta'minlashda sohani rivojlantirish uchun yaratilgan shart-sharoitlar, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari uchun huquqiy asosni yaratilishi muhim omillardan hisoblanadi [9].

Viloyatda sanoatning rivojlanish darajasini baholash maqsadida yana bir ko'rsatkichning o'zgarish dinamikasiga alohida e'tibor qaratib o'tmoqchimiz. Ya'ni, jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida viloyat ulushining o'zgarish dinamikasini qarab chiqamiz. Ma'lumotlarning mavjudligini hisobga olgan holda ushbu ko'rsatkichni 2000-2024-yillar mobaynidagi o'zgarishini qarab chiqanimizda, statistik ma'lumotlar asosida hisoblangan ko'rsatkichlar viloyatning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi tadqiq qilinayotgan davrda 2,2 foizdan 3,9 foizgacha bo'lgan oraliqda o'zgarib turganligi aniqlandi. Dastlabki davrda, ya'ni 2000-2004-yillarda ulushni pasayishi kuzatilgani holda 2,6 foizdan 2,2 foizga qadar pasaygan bo'lsa, 2005-yilda keskin oshib 2,6 foizga yetgan va keyingi ikki yilda o'zgarishsiz qolgan.

Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozining sodir bo'lishi ikki yilda qaytadan tadqiq qilinayotgan davrdagi quyi nuqtagacha pasayishiga sabab bo'lgan. Ya'ni, 2008-yilda ulushni 2,4 foizgacha, 2009-yilda esa 2,2 foizgacha pasayiga olib kelgan. Asosiy o'sish sur'ati 2011-yildan boshlab ta'minlangani holda 2014 va 2015-yillarga kelib ulushni o'sish sur'atida ijobiy keskinlik kuzatiladi, ya'ni 2,6 foizdan 3,6 foizga qadar ko'tariladi. Biroq 2016-yilga kelib keskin pasaygani holda 3,1 foizni tashkil qilgan. Nihoyat, 2017-yilda boshlab, viloyatda yetishtirilgan sanoat mahsulotining YHMdagi ulushining barqarorligiga erishilgani holda keyingi uch yilda yuqori o'sish sur'atlari hisobiga ulushni 3,9 foizga yetishi ta'minlangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining sodir bo'lishi boshqa hududlarga nisbatan Xorazm viloyatiga kuchliroq ta'sir qilgani holda jamiga nisbatan ulushni pasayishga olib kelgan bo'lsa, yaqinda sodir bo'lgan pandemiya davrida ulushni yuqori suratlardagi o'sishini ta'minlanishi sanoatni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan dasturlarning samaradorligini asoslamoqda [10].

2016-yildagi keskin pasayishga alohida e'tibor qaratib o'tmoqchimiz, aynan shu yildan boshlab, statistik ma'lumotlar aniqlik kiritilgani holda qayta baholash ishlari amalga oshirila boshlangan bo'lib, ayrim ma'lumotlarda o'zgarishlarni kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Ushbu ijobiy natijalarga erishishda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni optimal tarkibini shakllantirish, hududning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda istiqbolli yo'nalishlarni belgilab olish muhim masalalardan sanaladi. Buni hisobga olgan holda viloyatda sanoat ishlab chiqarish tarkibini mavjud holatini qiyosiy tahlili hamda 2010-2024-yillardagi o'zgarish dinamikasiga e'tibor qarab chiqildi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekiston Respublikasi hamda Xorazm viloyatida sanoat tarkibini o'zgarish dinamikasi

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston Respublikasi			Xorazm viloyati		
	2010	2024	O'zgarish	2010	2024	O'zgarish
Ishlab chiqaradigan sanoat	100	100	0	91,7	96,5	5
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	19,2	12,9	-6	50,9	23,4	-27
Ichimliklar ishlab chiqarish	3,2	2,7	-1	3,6	2,2	-1
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	1,4	0,6	-1	0,0	0,0	0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	16,9	13,8	-3	24,5	22,5	-2
Kiyim ishlab chiqarish	2,0	3,6	2	0,5	0,7	0
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	0,3	0,6	0	0,2	0,1	0
Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	0,2	0,6	0	0,1	0,3	0
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	0,5	0,8	0	0,4	1,1	1
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,7	0,4	0	0,1	0,0	0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	6,2	3,0	-3	0,0	0,0	0
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	6,8	7,4	1	0,3	0,3	0
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	0,6	1,0	0	0,1	0,1	0
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	2,0	2,2	0	0,5	0,9	0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	5,7	5,5	0	3,6	3,0	-1
Metallurgiya sanoati	12,8	25,6	13	0,1	0,3	0
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	2,0	2,9	1	1,3	1,4	0
Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	1,5	1,6	0	0,0	0,0	0
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	1,4	3,0	2	0,6	0,2	0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	0,7	1,2	0	2,7	2,0	-1
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	12,4	8,5	-4	0,0	36,9	37
Boshqa transport uchkunolari ishlab chiqarish	0,3	0,3	0	0,0	0,0	0
Mebel ishlab chiqarish	0,6	0,8	0	0,6	0,4	0
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	0,8	0,5	0	2,0	0,7	-1
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	1,7	0,5	-1	0,0	0,1	0

Natijalarga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan, xususan mamlakat miqyosida mazkur ko'rsatkich 19,2 foizdan 12,9 foizga kamaygan. Xorazm viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning sanoatdagi ulushi 2010-yilda 50,9 foizni tashkil qilgani holda asosiy yo'nalishlardan biri hisoblangan. Biroq keyingi yillarda sanoat tarkibini o'zgarishi natijasida mazkur ulushning kamayishi kuzatilgan, ya'ni avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 2010-yilda viloyatda mavjud bo'lmagan bo'lsa, 2024-yilga kelib 36,9 foizni tashkil qilgan. Natijada, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning jami sanoat mahsulotlaridagi ulushi ikki barobardan oshiqroq miqdorga kamayib, 2024-yilda 23,4 foizni tashkil qilgan.

Mamlakatda katta miqdorda paxta yetishtirishning yo'lga qo'yilganligi yengil sanoat, xususan, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirishda nisbiy ustunlikni ta'minlagani holda istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaralishiga asos yaratadi. Sanoat tarkibi o'zgarishlari bo'yicha amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko'ra mamlakat va viloyatda to'qimachilik mahsulotlarining ulushida kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda [11].

Yuqorida olingan natijalarga asoslangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda diversifikatsiyaning amalga oshirilishi natijasida mahsulot sonini ko'payishi evaziga boshqa va muhim yo'nalishlarining ulushida pasayish kuzatilmoqda. Sanoatda to'qimachilikning ulushi mamlakat miqyosida 3 birlikka, viloyat miqyosida 2 birlikka kamaygan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha muhim farqlardan biri metallurgiya sanoatida kuzatiladi. Mamlakat miqyosida ushbu yo'nalishning ulushi tadqiq



qilinayotgan davrda ikki barobardan oshiqroqqa ko'paygani holda 25,6 foizga yetgan bo'lsa, viloyat miqyosida esa ushbu yo'nalishning ulushini 0,5 foizga ham yetmasligini kuzatish mumkin.

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda erishilgan ijobiy natijalardan biri sifatida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning paydo bo'lishi va qisqa muddatda jami mahsulotdagi ulushini 36,9 foizga yetganligini ko'rsatish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, viloyatda yengil sanoatni rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi, chunki to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,5 foizni tashkil qilgani holda kiyim ishlab chiqarish ulushi 0,7 foizni tashkil qilmoqda. Bundan tashqari, keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilib kelinayotgan farmatsevtika sohasini rivojlantirish ham istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-yanvarda "2022 - 2026-yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-55-sonli Farmoni qabul qilingan bo'lib, unda viloyatda sohani rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratib o'tilgan. Ushbu yo'nalishda imkoniyatlar keng bo'lishiga qaramasdan oxirgi o'n yillikda mamlakat miqyosida soha ulushining 0,6 foizdan 0,1 foizga qadar kamayganligi kuzatilgan bo'lsa, Xorazm viloyatida o'zgarishsiz qolgan. Viloyatda avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishdagi asosiy ijobiy o'zgarishni hisobga olmaganda yagona ijobiy o'zgarish qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarishda kuzatilgan bo'lib, u ham ahamiyatli darajada emas.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'sish sur'atlari ta'minlanayotgan bo'lishiga qaramasdan muhim ko'rsatkichlar bo'yicha mamlakat miqyosidagiga nisbatan ancha pastda ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, sanoat tarkibini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarda belgilangan vazifalarni ham o'z vaqtida va samarali bajarish masalalariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan, bundan tashqari, viloyatning mahsulot yetishtirishda nisbiy ustunlikka ega bo'lgan sohalarning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi nafaqat pastligicha qolib kelmoqda, balki kamayish tendensiyasiga ham ega bo'lmoqda. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash vositasi sifatida qarab kelinayotgan kichik biznesning sanoat tarmog'i rivojini ta'minlashdagi roli ham ancha yuqori bo'lib, tadqiqot ishining keyingi paragrafida ushbu ta'sirni baholash masalasiga e'tibor qaratib o'tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Marshall, A. (1920). Principles of Economics (8th ed.). London: Macmillan.
2. Porter, M.E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
3. Rostow, W.W. (1960). The Stages of Economic Growth: A Non-Communist Manifesto. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
5. Abduraxmonov, Q.X.. Sanoatni modernizatsiya qilish jarayonida rivojlanish tendensiyalari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №2(38), 2020, 45–52.
6. Gulyamov S.S. i dr. Tadbirkorlik va kichik biznes. O'quv qo'llanma. -T.: TDIU, 1996.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi", 2020 yil 30 dekabr.
8. Do'stjanov T.D., Salayev S.K. Kichik biznesning katta imkoniyatlari. -Urganch.: Xorazm, 1997.
9. Pardayev, M.G.. Hududiy iqtisodiyotda sanoat tarmoqlarini diversifikatsiya qilish muammolari. Iqtisodiyot va ta'lim, №6(73), 2019, 12–20.
10. Nurimbetov, R., Kalmuratov, B., Mirzanov, B., Beglenov, N., & Bekbosinov, A. (2024). Development Of Forecasting Indicators Of Industry Development Trends In The Republic Of Karakalpagistan. Library of Progress-Library Science, Information Technology & Computer, 44(3).
11. Nurimbetov, R. I., & Karimov, K. M. (2025). The role of innovation policy in advancing uzbekistan's textile industry: empirical evidence and strategic forecasting. Innovation Science and Technology, 1(5), 115-120.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100